


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-mart oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 6 460,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 foizga teng bo'ldi.

2023- yil yanvar-mart oylarida YAHM deflyator indeksi 115,8 foizni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)**—milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda  
2023- yil yanvar-mart oylarida**




Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 105,5 foiz (umumiyl ulushning 31,4 foizi), jami xizmatlar - 104,0 foiz (umumiyl ulushning 43,3 foizi), sanoat – 102,8 foiz (umumiyl ulushning 19,0 foizi) ni tashkil qildi.



## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2022- yil yanvar-martda – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,5 f.p. (2022- yil yanvar-martda – 2,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,2 f.p. (2022- yil yanvar-martda – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,7 f.p. 2022- yil yanvar-martda – 2,1 f.p.) ijobjiyo hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2022- yil yanvar-martda –0,5 f.p.)ga ko'paydi.



**Yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy  
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi**

	mlrd. so‘m		2022- yil yanvar-mart oyiga nisbatan foiz hisobida
	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>5 343,3</b>	<b>6 460,6</b>	<b>104,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	5 115,3	6 240,2	104,2
 mahsulotlarga sof soliqlar	228,0	220,4	109,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>5 115,3</b>	<b>6 240,2</b>	<b>104,2</b>
 Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 601,1	1 961,2	105,5
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	1 225,8	1 577,0	102,8
 sanoat	889,8	1 184,4	102,8
 qurilish	336,0	392,6	102,9
<b>Xizmatlar</b>	<b>2 288,4</b>	<b>2 702,0</b>	<b>104,0</b>
 savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	364,0	417,6	100,6
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	362,3	434,7	108,9
 boshqa xizmat tarmoqlari	1 562,1	1 849,7	103,6


2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga asosiy ta’sir qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (o‘sish sur’ati 105,5 foiz) va xizmatlar (o‘sish sur’ati 104,0 foiz) tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. YAHM ishlab chiqarish umumiylajmining 64,7 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2022- yil yanvar-mart oylarida 65,8 foizni tashkil qilgan.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da


(jamiga nisbatan foizda)

2023- yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 31,4 foizni tashkil qildi va 2022- yilning yanvar-mart oylariga (31,3 foiz) nisbatan 0,1 punktga ko'paydi, sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 25,3 foizni tashkil qilib, 2022 - yil yanvar-mart oylariga (24,0 foiz) nisbatan 1,3 punktga ko'pdirdi. Xizmatlar sohasi ulushi 43,3 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga (44,7 foiz) nisbatan 1,4 punktga kamaydi.

### 2022-yil yanvar-mart




### 2023-yil yanvar-mart




## Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-mart oylari, jamiga nisbatan ulushi)

**2022- yil**




**2023- yil**




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘shtan hissasi 3,3 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan.

### Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, foizda




Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 293,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 foiz o‘sishga erishildi.




**Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**

**2022- yil yanvar-mart**



**2023- yil yanvar-mart**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

2023- yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 43,3 foiz (2022- yil yanvar-mart oylarida 44,7 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 6,7 foizni (2022- yil yanvar-mart oylarida 7,1 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 7,0 foizni (2022- yil yanvar-mart oylarida 7,1 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 29,6 foizni (2022-yil yanvar-mart oylarida 30,5 foiz) tashkil etdi.

**O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining  
asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari  
(2023- yil yanvar-mart)**

	<i>O'zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da</i>	
	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>yanvar-mart 2022 - y.</i>	<i>yanvar-mart 2023- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	198 483,5	105,5	6 460,6	104,4	3,2	3,3
Sanoat	130 997,6	102,0	4 856,7	102,4	3,4	3,7
Iste'mol mollari	40 013,6	105,1	2 769,9	112,4	6,5	6,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40 416,3	103,2	3 344,9	105,6	8,2	8,3
Investitsiyalar	56 557,6	103,1	1 668,2	108,0	2,7	2,9
Qurilish ishlari	27 564,6	104,5	903,7	102,9	3,2	3,3
Chakana tovar aylanmasi	59 050,8	105,2	2 101,6	101,1	3,7	3,5
Xizmatlar, jami	96 758,0	110,9	2 715,8	108,5	2,9	2,8
Eksport (mln. AQSh doll.)	5 688,9	97,4	71,3	129,0	0,9	1,3
Import (mln. AQSh doll.)	9 090,8	123,4	132,5	2,2 m.	0,8	1,5

2023- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 6 460,6 mld. so‘mni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,3 foizni tashkil qilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 104,4 foizni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 856,7 mld. so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,7 foizini) tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,4 foizni tashkil etdi. 2023-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 2 769,9 mld. so‘mlik xalq iste’mol mollari (respublikada xalq iste’mol mahsulotlarining 6,9 foizi) ishlab chiqarilib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 112,4 foizni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 3 344,9 mld. so‘mni (respublikada qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 8,3 foiz) tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,6 foizga etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 668,2 mld. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o‘sish sur’ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 108,0 foizni (respublikadagi ulushi 2,9 foiz) tashkil etdi.

2023-yil yanvar-mart oylarida 903,7 mld. so‘mlik (respublikadagi ulushi 3,3 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 foizni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 101,6 mld. so‘mni (respublikadagi ulushi 3,5 foiz), o‘sish sur’ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 101,1 foizni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 2 715,8 mld. so‘mni, (respublikadagi ulushi 2,8 foizni) tashkil qildi va 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish 108,5 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning yanvar-mart oylarida 203,8 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,4 foizni), o‘sish sur’ati 177,7 foizni, jumladan: eksport – 71,3 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), o‘sish sur’ati 129,0 foizni, import – 132,5 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,5 foizni), o‘sish sur’ati 2,2 martani tashkil etdi.